“Davlat ekologik ekspertizasi markaz”
davlat muassasasi Bosh direktorining
2026-yil ____ -maydagi _____-son
buyrug‘iga **14-ilova**

Davlat ekologik ekspertizasi markazi va hududiy filiallarida korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi bo‘yicha QO‘LLANMA

I. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasidagi qonunchilik va korrupsiyaga qarshi kurashish talablariga muvofiq ishlab chiqilgan.

“Davlat ekologik ekspertizasi markazi” davlat muassasasi (keyingi o‘rinlarda — Markaz) va Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar filiallari (keyingi o‘rinlarda — hududiy filiallari) Korrupsiyaga qarshi siyosatga muvofiq Markazning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi asosiy maqsadi Markaz faoliyatining qonunchilik va me’yoriy hujjatlar talablariga, shu jumladan, Markaz xodimlariga, shuningdek, hamkorlar, mijozlar va boshqa manfaatdor tomonlarga nisbatan ISO 37001 xalqaro standarti talablariga muvofiqligini ta’minlashdan iborat. Bundan tashqari, Markazda fuqarolar va barcha manfaatdor shaxslar tomonidan korrupsiyaga barcha mavjud vositalar bilan qarshi turuvchi va uning har qanday turlariga toqat qilmaydigan Markaz sifatida ishonchini qozonish va mustahkamlash.

Ushbu maqsadga erishish va manfaatdor tomonlarning ehtiyojlarini to‘liq qondirish uchun Markaz o‘z faoliyatida ISO 37001:2016 xalqaro standarti asosida ishlab chiqilgan Korrupsiyaga qarshi kurashni menejment tizimidan (keyingi o‘rinlarda KQKMT deb yuritiladi) foydalanadi.

2. Korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha ushbu qo‘llanma amaldagi korrupsiyaga qarshi menedjment tizimi uchun asosiy qoidalar va talablarni tavsiflaydi va Markazning barcha xodimlari uchun majburiydir.

3. Markazning korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi bo‘yicha qo‘llanma KQKMTning tuzilmasini aniqlaydi va belgilaydi, shu bilan birga, korrupsiyaga qarshi menejment tizimini joriy etish va yuritish bo‘yicha ma’lumotnoma hisoblanadi.

4. Ushbu hujjatda keltirilgan KQKMTning barcha hujjatlashtirilgan tartiblarini va jarayonlari Markaz tomonidan rasman qabul qilingan va ushbu tartiblariga bo‘ysunadigan xodimlar uchun majburiydir.

5. KQKMT ISO 37001:2016 xalqaro standarti talablariga muvofiq ishlab chiqilgan va Markaz xodimlari, shuningdek, hamkorlar va boshqa manfaatdor tomonlarning moliyaviy va nomoliyaviy nazorat choralari bilan bog‘liq korrupsion faoliyatning barcha turlarini muvofiqlashtirish maqsadida joriy etilgan.

6. Ushbu hujjatning talablari Markazning korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi doirasiga kiruvchi barcha hududiy filiallariga nisbatan qo‘llaniladi. Ushbu hujjatning mazmuni Markazning korrupsiyaga qarshi kurashish bilan bog‘liq ichki faoliyati tavsifidir.

7. Ushbu hujjatda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo‘llaniladi:

davlat organlari va muassasalari – davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, fuqarolarning o‘z-o‘zini boshqarish organlari (jumladan, Davlat ekologik ekspertizasi markazi va barcha hududiy filiallari) va ularning tarkibiy bo‘linmalari, shuningdek davlat tomonidan bevosita yoki bilvosita nazorat qilinadigan yuridik shaxslar;

ish faoliyati yuzasidan mehmondo‘stlik belgilari – uchinchi shaxslarning hamkorlik o‘rnatish va/yoki uni qo‘llab-quvvatlash bilan bog‘liq bo‘lgan, Markaz xodimlarining sodiqligini oshirishga qaratilgan bo‘lib ularning manfaatlari yo‘lidagi harajatlari, jumladan uchinchi shaxslarning ovqatlanishi, ish faoliyati yuzasidan tushliklar tashkil etilishi bilan bog‘liq harajatlari, transport harajatlari, yashash, ko‘ngilochar tadbirlar, jumladan sayohat dasturlari bilan bog‘liq harajatlar va h.k.;

kontragent – Markaz bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishgan (mehnat munosabatlari bundan mustasno) har qanday yuridik yoki jismoniy shaxs;

poraxo‘rlik – amaldagi qonunchilikni buzgan holda, to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita va joylashgan joyidan qat’i nazar, shaxsning vazifalarini bajarishi munosabati bilan harakat qilgan yoki harakat qilishdan bosh tortgan shaxs uchun har qanday qiymatni (moliyaviy yoki moliyaviy bo‘lmagan bo‘lishi mumkin) taklif qilish, va’da qilish, berish, qabul qilish yoki talab qilish;

korrupsiya – shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

korrupsiyaviy xavf-xatar – Davlat ekologik ekspertizasi markazi xodimlari yoki uchinchi shaxslar tomonidan Davlat ekologik ekspertizasi markazi nomidan yoki ularning manfaatlari yo‘lida korrupsiyaviy harakatlarni amalga oshirish xavfi;

korrupsiyaviy xarakatlar – moddiy manfaatdor bo‘lish maqsadida xodim tomonidan bevosita yoki bilvosita shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali pora beruvchi manfaatlari yo‘lida harakat yoki harakatsizligi, shu jumladan pul, qimmbaho qog‘oz, boshqa ko‘rinishdagi mulk va mulkiy huquqlar, mulkiy harakterdagi xizmatlar olish, talab qilish, undirish, taklif qilish yoki berish, pora berish va/yoki olish yoki bunda vositachilik qilishda, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to‘lovlar undirish (pora olish) va boshqa noqonuniy maqsadlarda o‘z xizmat vazifalaridan noqonuniy foydalanish;

korrupsiyaviy huquqbuzarlik – sodir etilganlik uchun O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida javobgarlik belgilab qo‘yilgan korrupsiya alomatlariga ega hatti-harakat;

korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi – korrupsiyaviy harakatlarning, O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi

qonunchiligi va Markazning korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga doir ichki hujjatlari buzilishining oldini olish, Markaz xodimlari tomonidan o‘z faoliyatini professional va xulq-atvor jihatdan yuksak darajada amalga oshirilishini ta’minlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar;

mansabdor shaxs:

doimiy, vaqtincha yoki maxsus vakolat bo‘yicha tayinlanadigan yoki saylanadigan, hokimiyat vakili vazifalarini bajaradigan yoxud davlat organlarida, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarida, mulk shaklidan qat’i nazar, korxonalarda, muassasalarda, tashkilotlarda tashkiliy-boshqaruv, ma’muriy-xo‘jalik vazifalarini amalga oshiradigan va yuridik ahamiyatga ega harakatlarni sodir etishga vakolat berilgan shaxs,

xalqaro tashkilotda yoxud chet davlatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, ma’muriy yoki sud organida mazkur vazifalarni amalga oshiruvchi shaxs.

manfaatlar to‘qnashuvi – Markaz xodimining shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik, shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir ko‘rsatayotgan yoxud ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, Markazning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyat;

rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to‘lovlar – belgilangan tartib-taomillar yoki harakatlarni sodir etish bilan bog‘liq standart tartiblar amalga oshirilishini ta’minlash yoki tezlashtirish maqsadida tegishli qonunchilik va normativ me’yorlar hamda qoidalarda ko‘zda tutilmagan noqonuniy ravishda taqdim etiladigan pul mablag‘lari, mol-mulk, mulkiy huquqlar, xizmatlar hamda boshqa moddiy va nomoddiy foyda;

xayriya (xayriya yordami) – yuridik va jismoniy shaxslar (xayriya qiluvchilar)ning Davlat ekologik ekspertizasi markazi uchun bepul yoki imtiyozlar asosida moddiy va/yoki nomoddiy boyliklar, xususan, pul mablag‘lari shaklidagi boyliklarni topshirish, ular uchun ma’lum ishlarni bajarish, xizmatlar ko‘rsatish va xayriya maqsadlaridagi boshqa qo‘llab-quvvatlashlarni taqdim etishda namoyon bo‘ladigan ixtiyoriy beg‘araz yordami;

xalqaro tashkilot – davlatlar, hukumatlar yoki boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan tashkiliy shakli va vakolatlaridan qat’iy nazar tashkil etilgan har qanday xalqaro tashkilot, jumladan, masalan iqtisodiy integratsiya bo‘yicha mintaqaviy tashkilotlar.

xodim – Markaz bilan mehnat munosabatlariga kirishgan jismoniy shaxs;

homiylik (homiylik yordami) – yuridik va jismoniy shaxslar (homiylar) tomonidan Davlat ekologik ekspertizasi markazi (homiylik qilinayotgan muassasalar) uchun ishlar bajarib berish, xizmatlar ko‘rsatish va hayriya maqsadlarida boshqa turdagi yordamlarni ko‘rsatish, mol-mulk, jumladan pul mablag‘lari taqdim etish bilan ifodalanadigan yordami hisoblanib, ularning natijasida Markazda homiy oldida o‘zaro majburiyatlar yuzaga keladi;

yaqin qarindoshlar – bir-biriga qarindoshlik yoki yaqin aloqasi bor shaxslar, ya’ni ota-ona, tug‘ishgan hamda aka-ukalar va opa-singillar, er-xotin, farzandlar

(jumladan asrab olingan farzandlar), buvalar, buvilar, nabiralar, shuningdek er (xotin)ning ota-onasi, tug‘ishgan va aka-ukalari va opa-singillari;

yuqori rahbariyat – tashkilotga yuqori rahbarlik qiluvchi va uni yuqori darajada boshqaruvchi shaxs yoki shaxslar guruhi;

boshqaruvchi organ – tashkilotning faoliyati, boshqaruvi va siyosati uchun mas’ul hisoblangan, unga yuqkori rahbarlik qiluvchi ham hisobdor bo‘lgan va uning oldida yuqori rahbariyat ham javobgar bo‘lgan shaxslar guruhi yoki organ;

Davlat ekologik ekspertizasi markazi konteksti – Davlat ekologik ekspertizasi markazining biznes-muhiti. Markazning o‘z xizmatlari, investitsiyalari va manfaatdor tomonlariga bo‘lgan yondashuviga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan ichki va tashqi omillar va shartlarning uyg‘unligi;

SWOT tahlil - Kuchli (S) va kuchsiz (W) tomonlar tahlil qilinayotgan ob’yektning ichki muhitining omillari, (ya'ni ob’yektning o'zi nimaga ta'sir qilishi mumkin); Imkoniyatlar (O) va tahdidlar (T) atrof-muhit omillari (ya'ni, ob’yektga tashqaridan ta'sir qilishi mumkin bo'lgan va ob’yekt tomonidan boshqarilmaydiganlar).

manfaatdor tomon – faoliyatni amalga oshirish yoki qarorlarni qabul qilishga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan, ularning ta’siriga uchrashi yoki uzini oxirgi sifatida qabul qilishi mumkin bo‘lgan sha’s yoki tashqilot.

II. Korrupsiyaga qarshi faoliyatni boshqarish

8. Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorat bo‘yicha bosh mutaxassisi KQKMTni ish tartibida saqlash, uning faoliyati samaradorligini nazorat qilish, ushbu hujjatni va unga kiritilgan o‘zgartirishlarni ishlab chiqish, kelishish va tasdiqlash, shuningdek uning to‘g‘riligini nazorat qilish uchun qo‘llanilishi, uning qoidalari ISO 37001:2016 talablariga muvofiqligi uchun javobgardir.

§ 1. Davlat ekologik ekspertizasi markazi va uning kontekstini tushunish

9. Davlat ekologik ekspertizasi markazida kontekstning dolzarbligini aniqlash va baholash mahsus ishchi guruh majlisida amalga oshiriladi va majlis bayoni shaklida rasmiylashtiriladi. Markaz kontekstini aniqlashda SWOT tahlili uslubiga muvofiq Markazning zaif va kuchli tomonlari, imkoniyatlari va tahdidlarining tahlili amalga oshiriladi.

10. Kontekstning ta’rifi va uning yangilanishi yig‘ilish bayonnomasida qayd etiladi.

§ 2. Manfaatdor tomonlarning talablarini va ishonchlarini tushunish

11. Quyidagilar Markaz faoliyatining asosiy manfaatdor tomonlari hisoblanadi:

a) Bosh direktor (Boshqaruvchi organ);

b) Direktorning birinchi o‘rinbosari (Yuqori rahbariyat);
c) Xodimlar;
d) Fuqarolar;
e) Hamkorlar;
f) Davlat;
g) Nazorat organlari;
h) Ommaviy Axborot Vositalari;
i) Jamiyat

12. Manfaatdor tomonlarga qo‘yiladigan talablar o‘rnatilgan qonunchilik va me’yoriy hujjatlar talablariga muvofiq belgilanadi. Tegishli manfaatdor tomonlar bilan o‘zaro hamkorlik tuzilgan shartnomalarga muvofiq yoki rasmiy yozma so‘rov asosida amalga oshiriladi.

§ 3. Korrupsiyaga qarshi kurashni menedjment tizimining ta’sir doirasini aniqlash

13. KQKMT ning ta’sir doirasi — “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvini amalga oshirish” hamda qo‘llanish chegarasi Davlat ekologik ekspertizasi markazi markaziy apparati deb belgilangan.

§ 4. Korrupsiyaga qarshi menedjment tizimi va uning jarayonlari

14. Markazda korrupsiyaga qarshi kurashni boshqarish tizimi quyidagi asosiy jarayonlarga ega:

1) KQKMT rejalashtirish
2) KQKMT talablarini tadbiq qilish va ishchi holatda saqlash
3) KQKMT monitoringi va baholash
4) KQKMTning amal qilishi va takomillashtirishning tahlili

15. KQKMT samarali ishlashi uchun ishtirokchilar, resurslar, jarayonlar, jarayonlarning kirishlar va natijalar 1-ilovada belgilangan.

16. Jarayonlar samaradorlik ko‘rsatkichlari asosida baholanadi. Buning uchun samaradorlik ko‘rsatkichlarini baholash mezonlari va usullari, shuningdek, samaradorlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha ma’lumotlarni yig‘ish chastotasi va mas’uliyati belgilanadi. Jarayon samaradorligi ko‘rsatkichlarini baholash shakli 2-ilovada keltirilgan.

17. Ko‘rsatkichlar, mezonlar va baholash usullari KQKMTni doimiy ravishda takomillashtirishni ta’minlash uchun har yili ko‘rib chiqiladi va Markaz bosh direktorining birinchi o‘rinbosari tomonidan tasdiqlanadi.

§ 5. Korrupsiya xavfini baholash

18. Markaz korrupsiyaviy xavflarini muntazam ravishda baholashni amalga oshiradi, bunda aniqlangan xavflarni belgilash, tahlil qilish va boshqarish choralarini ishlab chiqish amalga oshiriladi. Korrupsiya xavflarini baholash tartibi “Davlat ekologik ekspertizasi markazi va hududiy filiallari faoliyatida

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash Uslubiyoti” alohida hujjat shaklida taqdim etilgan.

III. Etakchilik

§ 1. Etakchilik va majburiyat

19. Davlat ekologik ekspertizasi markazining boshqaruv organi Bosh direktor bo‘lib, u quyidagilarga mas’uldir:

a) korrupsiyaga qarshi kurash siyosatini tasdiqlash;

b) tashkilot strategiyasi va korrupsiyaga qarshi siyosatining muvofiqlashtirilishini ta’minlash;

c) korrupsiyaga qarshi kurashbi menejment tizimining holati va faoliyati to‘g‘risida belgilangan vaqt oralig‘ida olingan ma’lumotlarni tahlil qilish;

d) korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimining samarali ishlashi uchun zarur bo‘lgan adekvat va tegishli resurslarni ajratish va ajratishni talab qilish;

e) Markazda korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimini joriy etish va uning samaradorligi ustidan Markaz bosh direktorining birinchi o‘rinbosari tomonidan tegishli nazoratni amalga oshirish.

20. Markazda Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatini amalga oshirishning harakatlantiruvchi kuchi Markaz bosh direktorining birinchi o‘rinbosari hisoblanadi, unga ko‘ra asosiy maqsad:

a) korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi, maqsadi va siyosatini ham inobatga olgan holda, Markazdagi korrupsiya xavfini to‘g‘ri ko‘rib chiqish uchun ishlab chiqilgani, amalga oshirilgani va tahlil qilinganini ta’minlash;

b) korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi talablarining Markaz faoliyatiga integratsiyalashuvini ta’minlash;

c) korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimining samarali ishlashi uchun ichki va tegishli resurslarini ajratish;

d) korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimining samarali ishlashi uchun ichki va tashqi kommunikatsiya resurslarini ajratish;

e) korrupsiyaga qarshi kurashish menejmenti samaradorligi ahamiyatini tushunishni tashkil etishni ommalashtirish va korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi talablarining bajarilishini ta’minlash;

f) o‘z maqsadlariga erishishi uchun korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimining to‘g‘ri ishlab chiqilganligini ta’minlash;

g) korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi samaradorligini ta’minlashga rahbarlik qilish va bu sohada xodimlarni qo‘llab-quvvatlash;

h) tashkilotda korrupsiyaga qarshi madaniyatni targ‘ib qilish;

i) uzluksiz takomillashtirishni rag‘batlantirish;

j) korrupsiyaning oldini olish va uni aniqlashda, yetakchilikni namoyish etishda korrupsiyaga qarshi kurashish vakolatiga ega bo‘lgan boshqa tegishli rahbarlarni

qo‘llab-quvvatlash, gumon yoki korrupsiya faktlari haqida xabar bo‘lgan taqdirda tegishli Tartibda harakat qilinishini ta’minlash;

k) halol maqsadga asoslangan xabarlar yoki Markazning korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati buzilganligi yoki gumon qilinganligi haqida asoslangan gumon yoki hatto faoliyatiga zarar keltirsa ham, poraxo‘rilikdan bosh tortgani haqida axborot uchun jazo choralari, kamsitish yoki intizomiy ta’sir ko‘rsatishdan xodimlar zarar ko‘rmasligini ta’minlash;

l) rejalashtirilgan muddatlar oralig‘ida korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimining holati va faoliyati to‘g‘risida, boshqaruv organiga hisobotlar berish.

§ 2. Korrupsiyaga qarshi siyosat va muvofiqlik deklaratsiyasi

21. Markazda korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati Markaz bosh direktori tomonidan tasdiqlanadi va quyidagilar asosida ishlab chiqilgan:

a) O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha qonun hujjatlari talablari;

b) tashkiliy va korrupsiyaga qarshi kurash maqsadlariga muvofiq;

c) Markazning KQKMTni rejalashtirilgan takomillashuvi.

22. Davlat ekologik ekspertizasi markazida korrupsiyaga qarshi kurash siyosati tanishtirish seminar orqali Markaz xodimlari e’tiboriga yetkaziladi. Korrupsiyaga qarshi kurash siyosati Markazning yangi qabul qilingan xodimlariga ular xizmat vazifasiga kirishayotgan paytda yetkaziladi.

23. Markazda korrupsiyaga qarshi siyosat amaldagi tahrirda Markazning rasmiy veb-saytiga (https://eco-service.uz/) joylashtirish orqali tegishli manfaatdor tomonlar e’tiboriga havola etiladi.

24. Bosh direktor va uning o‘rinbosarlari hamda korrupsiyaviy xavf darajasi pastdan yuqori bo‘lgan barcha xodimlar har yilning 20-martiga qadar 3-ilovaga asosan KQKMTga va siyosatiga muvofiqligi to‘g‘risida deklaratsiya imzolashlari zarur.

§ 3. Davlat ekologik ekspertizasi markazidagi funksiyalar, mas’uliyat va vakolatlar

25. KQKMT samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun Markaz bosh direktori va o‘rinbosari tomonidan Markaz xodimlari o‘zlarining funksional majburiyatlari, vakolatlari va huquqlaridan xabardor bo‘lishlari uchun tegishli vazifalar belgilab berilgan.

26. KQKMT ning samarali ishlashi uchun quyidagilar javobgardir:

a) Bosh direktor (Boshqaruv organi);

b) Bosh direktor birinchi o‘rinbosari (Yuqori rahbariyat);

c) Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo‘yicha bosh mutaxassisi (korrupsiyaga qarshi kurash xizmati);

d) Markazning hududiy filiallari (bo‘limlari va xizmatlari) rahbarlari.

27. Markaz tarkibiy bo‘linmalarining maqsad va vazifalari, xodimlarning funksional majburiyatlari, huquq va ma’suliyatlari quyidagilarda belgilanadi:

a) Markazning hududiy filiallari (boshqarma, bo‘lim, xizmat) to‘g‘risidagi Nizom;

b) Xodimlarning lavozim yo‘riqnomalari.

28. Ma’suliyatlari, majburiyatlari va vakolatlari, shuningdek, ularning Davlat ekologik ekspertizasi markazi KQKMTga ta’siri to‘g‘risidagi ma’lumotlar xodimlar e’tiboriga yangi ishga qabul qilingan xodimlarni o‘qitish va KQKMT hujjatlari bilan tanishtirish yo‘li bilan ular ish boshlaganlarida yetkaziladi.

29. Bosh direktor birinchi o‘rinbosari korrupsiyaga qarshi kurashish xizmatini tashkil etish uchun mas’ul hisoblanadi. Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmatiga quyidagi vazifalar yuklanadi:

a) Korrupsiyaga qarshi kurash menejment tizimini boshqarish;

b) KQKMTni ishlab chiqish va uning ISO 37001:2016 xalqaro standarti talablariga muvofiq samarali faoliyat yuritishi bo‘yicha ishlarni muvofiqlashtirish;

c) Davlat ekologik ekspertizasi markazining barcha xodimlari korrupsiyaga qarshi siyosatdan xabardor bo‘lishini ta’minlash;

d) KQKMT samarali faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tahlil qilish va Davlat ekologik ekspertizasi markazi bosh direktoriga Davlat ekologik ekspertizasi markazi KQKMT faoliyati to‘g‘risida hisobot taqdim etish;

e) Tuzatish harakatlarini bajarilishini tasdiqlash va ularning samaradorligini baholash uchun tekshiruvlarni tashabbuskori bo‘lish;

f) Ishchi guruh majlislarini o‘tkazish;

g) KQKMT Davlat ekologik ekspertizasi markazining ichki auditini tashabbuskori bo‘lish;

h) Hujjatlashtirilgan axborotni boshqarish tizimini boshqarish;

i) KQKMT hujjatlarini ISO 37001:2016 xalqaro standarti talablariga muvofiqligini ko‘rib chiqish (ular qabul qilinishi, o‘zgartirilishi/to‘ldirilishi yoki yangi tahrirda qabul qilinishidan oldin);

j) Rahbariyat tomonidan KQKMT faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida tahlil qilish uchun ma’lumotlarni to‘plash;

k) Rahbariyat tomonidan KQKMT tahliliga bag‘ishlangan yig‘ilishlarda ishtirok etish;

l) Rahbariyat tomonidan KQKMT tahliliga bag‘ishlangan yig‘ilish bayonnomasini tuzish.

30. Rahbariyat, agar kerak bo‘lsa, mas’uliyatni yuklab topshirish va qarorlar qabul qilish huquqiga ega.

31. Qaror qabul qilish huquqi va rahbariyat yo‘qligida javobgarlikni topshirish lavozim yo‘riqnomalarida belgilangan tartibda yoki buyruq chiqarish orqali amalga oshiriladi.

IV. Rejalashtirish

§ 1. Xavflar va imkoniyatlarga oid harakatlar

32. Davlat ekologik ekspertizasi markazi KQKMTni doimiy ravishda takomillashtirishga qaratilgan faol va ogoh madaniyatni joriy etish uchun har bir jarayonning tashqi va ichki omillaridan, shuningdek manfaatdor tomonlarning talablaridan kelib chiqadigan jarayonlarning ishlashi bilan bog‘liq barcha xavf va imkoniyatlarni aniqlash zarur.

33. Tegishli javob choralari belgilanishi va qabul qilingan chora-tadbirlarning samaradorligi xavf va imkoniyatlar nuqtayi nazaridan tahlil qilinishi kerak.

34. Xavflar va imkoniyatlarni aniqlash va baholash, har bir xavf darajasini aniqlash, qabul qilib bo‘lmaydigan xavflar bo‘yicha qarorlar qabul qilish, faoliyatni rejalashtirish va ko‘rsatkichlarni baholash ishlari Davlat ekologik ekspertizasi markazi korrupsiyaga qarshi kurash Siyosati talablariga muvofiq Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorat bo‘limi yetakchiligida amalga oshiriladi.

§ 2. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi maqsadlar va ularga erishishni rejalashtirish

35. “Davlat ekologik ekspertizasi markazida 2026-yil korrupsiyaga qarshi kurashish doirasidagi maqsadlar” hujjati korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi maqsadlarni belgilaydi.

36. Bajarilishi holati har chorakda Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorat bo‘limi tomonidan nazorat qilinadi va yuqori rahbariyat va boshqaruv organiga hisobot shaklida taqdim etiladi.

V. Qo‘llab-quvvatlash

§ 1. Resurslar

37. Rahbariyat KQKMT jarayonlarini amalga oshirish va Davlat ekologik ekspertizasi markazining korrupsiyaga qarshi kurash menejment tizimini doimiy ravishda takomillashtirish uchun zarur bo‘lgan resurslarni belgilaydi va ular bilan o‘z vaqtida ta’minlaydi.

§ 2. Kompetentlik

38. KQKMT samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun rahbariyat Davlat ekologik ekspertizasi markazi xodimlarining kasbiy tayyorgarligi, tegishli ta’lim va tajribaga ega bo‘lishi, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish

samaradorligiga ta’sir etuvchi ko‘nikma va qobiliyatlarni shakllantirish orqali ularning tegishli malaka darajasini ta’minlashi zarur.

39. Xodimlarning lavozim yo‘riqnomalarida ularning mehnat vazifalarini bajarish uchun zarur bo‘lgan malaka darajasini belgilaydi.

40. Davlat ekologik ekspertizasi markazi xodimlarining malakasini oshirish Davlat ekologik ekspertizasi markazida Korrupsiyaga qarshi kurash siyosatining ajralmas qismi bo‘lib, Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorat bo‘limi tomonidan puxta rejalashtirish asosida amalga oshiriladi.

41. Davlat ekologik ekspertizasi markazi xodimlarining malakasini oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshiriladi:

a) xodimlarni rivojlantirishni rejalashtirish;

b) kadrlar malakasini oshirish;

c) tashqi kasbiy treninglar, kurslar va seminarlarda ishtirok etish;

d) treninglar va o‘quv kurslarini tashkil etish uchun hamkorlar, xizmat ko‘rsatuvchi ta’minotchilar bilan o‘zaro hamkorlik qilish;

42. Davlat ekologik ekspertizasi markazi xodimlari o‘quv jarayonidan so‘ng olgan bilimlariga asosan test sinovlari o‘tkazilib ularning natijalari baholanadi.

43. Ishga qabul qilish va boshqarish jarayoni uchun quyidagi hujjatlar ishlab chiqilgan:

a) Davlat ekologik ekspertizasi markazi va hududiy filiallarida manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha Nizom;

b) Davlat ekologik ekspertizasi markazi va hududiy filiallari xodimlarining etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitilishini tashkil qilish bo‘yicha Yo‘riqnoma;

c) Davlat ekologik ekspertizasi markazi va hududiy filiallariga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo‘yicha Yo‘riqnoma;

d) Ichki mehnat qoidalari va boshqa ichki hujjatlar.

§ 3. Ogohlik va ta’lim

44. Davlat ekologik ekspertizasi markazi xodimlarini KQKMT talablari va ularning KQKMTga ta’siri bilan tanishtirishning tegishli mexanizmlari belgilangan.

45. Yangi qabul qilingan hujjatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorat bo‘limi tomonidan tashkil etilgan tegishli treninglar orqali Davlat ekologik ekspertizasi markazi xodimlari e’tiboriga yetkaziladi.

46. Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorat bo‘limi har yili Davlat ekologik ekspertizasi markazi xodimlari uchun korrupsiyaga qarshi treninglar tashkil etadi, unda xodimlar quyidagilar bo‘yicha ma’lumot olishlari mumkin:

a) korrupsiyaga qarshi siyosat, tartib va korrupsiyaga qarshi kurash menejment tizimlari, shuningdek ularga rioya qilish boʻyicha javobgarligi toʻgʻrisida;

b) korrupsiya xavfi va buning natijasida yetkazilishi mumkin boʻlgan zarar toʻgʻrisida;

c) oʻz vazifalarini bajarishi munosabati bilan pora taklif qilinishi mumkin boʻlgan holatlar va bu holatlarda qanday yoʻl tutish kerakligi toʻgʻrisida;

d) xodimlar korrupsiyaga qarshi kurashish va uni yoʻq qilishga qanday yordam berishi va korrupsiyaning asosiy belgilarini aniqlashi mumkiligi toʻgʻrisida;

e) xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurash menejment tizimi samaradorligiga qoʻshgan hissasi, shu jumladan, korrupsiyaga qarshi kurash faoliyatini takomillashtirish va korrupsiyada gumon qilinayotganlik haqida xabar berishning afzalliklari toʻgʻrisida;

f) korrupsiyaga qarshi kurash menejment tizimi talablariga rioya qilmaslikning oqibatlari toʻgʻrisida;

g) xodimlar har qanday shubhalar haqida qanday va kimga xabar berishlari kerakligi toʻgʻrisida;

h) oʻquv materiallari va boshqa ushbu mavzuga oid resurslar haqida maʼlumot.

47. Davlat ekologik ekspertizasi markazining yangi ishga qabul qilingan xodimlari uchun kundalik ish tartibi va Mehnat kodeksining boshqa talablari haqidagi maʼlumotlar xodimlarni boshqarish boshqarmasi tomonidan ularning eʼtiboriga havola qilinadi.

§ 4. Kommunikatsiya

48. Davlat ekologik ekspertizasi markazi ichki va tashqi aloqa turlari uchun kanallar uchun talablarni qabul qildi va oʻrnatdi.

49. Ichki aloqa kanallari:

a) eʼlonlar taxtasi (elektron shaklda — Davlat ekologik ekspertizasi markazining veb-saytida, jismoniy shaklda Davlat ekologik ekspertizasi markazi qabulxonalarida);

b) korporativ elektron pochta;

c) korporativ mobil aloqa;

d) telefoniya vositalari (ichki, statsionar va boshqa telefoniya);

e) elektron hujjat aylanishi uchun elektron aloqa kanali;

f) Davlat ekologik ekspertizasi markazi serverida saqlanadigan Davlat ekologik ekspertizasi markazining elektron arxivi;

g) ichki yigʻilishlar;

h) ichki tarmoq.

50. Tashqi aloqa kanallari:

a) pochta va xat tashuvchi xizmatlari;

b) Davlat ekologik ekspertizasi markazining korporativ veb-sayti;

c) korporativ elektron pochta;
d) korporativ mobil aloqa;
e) reklama va boshqa reklama vositalari;
f) rasmiy dasturiy vositalar (davlat organlari bilan aloqa qilish uchun);
g) OAV;
h) ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalar: Facebook (Meta), Telegram va boshqalar).

51. KQKMT doirasida aloqa kanallari orqali uzatiladigan asosiy ma’lumotlar va hujjatlar quyidagilardan iborat:

Qanday ma’lumot?	**Kimdan?**	**Kimga?**	**Qachon?**	**Qanday qilib?**
Qonunchilik koʻrinishidagi hujjatlar	Davlat organlari	Korrupsiyaga qarshi kurash va komplaens nazorat boʻlimiga	Zaruriyat tugʻilganda	Rasmiy xat
KQKMT samaradorligi boʻyicha hisobotlari	Korrupsiyaga qarshi kurash va komplaens nazorat boʻlimi	Davlat ekologik ekspertizasi markazi bosh direktori, Davlat ekologik ekspertizasi markazi bosh direktorining oʻrinbosarlariga	Yiliga kamida bir marta	Hisobot sifatida
KQKMT siyosatining buzilishiga shubha	Fuqaro, xodimlar va uchinchi shaxslar	Korrupsiyaga qarshi kurash va komplaens nazorat boʻlimiga	Zaruriyat tugʻilganda	Taqdim etilgan aloqa kanallari orqali
Korrupsion harakatlar haqida ma’lumot	Korrupsiyaga qarshi kurash va komplaens nazorat boʻlimiga	Vakolatli davlat organlariga, ommaviy axborot vositalariga	Zaruriyat tugʻilganda	Rasmiy xat
Manfaatlar toʻqnashuvi yoʻqligi va korrupsiya sohasida huquqbuzarlik mavjudligi toʻgʻrisidagi dalolat	Ishga nomzod Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazorat boʻlimi	Inson resurslarini boshqarish boʻlimiga	Talab boʻyicha	Rasmiy dalolat koʻrinishida
KQKMT ga kiritilgan oʻzgarishlar	Korrupsiyaga qarshi kurash va komplaens nazorat boʻlimi	Davlat ekologik ekspertizasi markazining barcha boʻlimlariga	Zaruriyat tugʻilganda	Xujjat almashuvi ichki ma’lumotlar bazasi orqali
Korrupsiyaga qarshi choralar boʻyicha savollar	Korrupsiyaga qarshi kurash va komplaens nazorat boʻlimi	Barcha nazorat qilinadigan tashkilotlar	Zaruriyat tugʻilganda	Rasmiy xat yoki toʻgʻridan-toʻgʻri uchrashuvlar
KQKMT hisobotiga koʻra qarorlar	Rais va uning birinchi oʻrinbosari tomonidan	Komplayens-nazorat boʻlinmasiga	Yiliga kamida bir marta	Buyruq shaklida
Korrupsiyaga qarshi majburiyat	Tegishli tulimalar	Kontragentlar, hamkorlar, pudratchilar, yetkazib beruvchilar	Zaruriyat tugʻilganda	Korrupsiyaga qarshi modda shaklida
Xavflar va ularni yangilash haqida	Boʻlim boshliqlari, ishchi guruh	Korrupsiyaga qarshi kurash va komplaens	Sodir boʻlgan vaqtida yoki	Xavflarni baholash

Qanday ma’lumot?	Kimdan?	Kimga?	Qachon?	Qanday qilib?
ma’lumot		nazorat bo‘limiga	yiliga kamida bir marta	tartibi asosida

§ 5. Hujjatlashtirilgan ma’lumotlar

52. KQKMT jarayonlarini samarali boshqarish, Davlat ekologik ekspertizasi markazi xujjatlarni rasmiylashtirish va qabul qilish tartibi “Davlat ekologik ekspertizasi markazida ish yuritish va hujjatlar ijrosini nazorat qilishni tashkil etish to‘g‘risidagi Yo‘riqnoma”ga asosan yuritiladi.

53. KQKMT hujjatlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

a) Korrupsiyaga qarshi kurash siyosati – Davlat ekologik ekspertizasi markazining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatining umumiy maqsadlari va yo‘nalishlarini belgilovchi, Davlat ekologik ekspertizasi markazi bosh direktori tomonidan rasman tasdiqlangan hujjat;

b) KQKMT qo‘llanmasi – Davlat ekologik ekspertizasi markazining korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimini tavsiflovchi hujjat;

c) Ichki me’yoriy hujjatlar – Davlat ekologik ekspertizasi markazining KQKMT faoliyatini samarali boshqarish uchun ishlab chiqilgan hujjatlar (Nizomlar, tartiblar, uslubiyotlar, yo‘riqnomalar va boshqalar).

d) Lavozim yo‘riqnomalari – Davlat ekologik ekspertizasi markazi xodimlarining malaka darajasiga (ma’lumoti, tajribasi, kasbiy tayyorgarligi va ko‘nikmasiga) qo‘yiladigan talablarni belgilovchi hujjat;

e) tashqi hujjatlar – O‘zbekiston Respublikasining kodekslari va qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya qo‘mitasi raisilar Mahkamasining qarorlari hamda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi boshqa qonun hujjatlari va normativ-huquqiy hujjatlar;

f) Yozuvlar — KQKMT faoliyati natijalariga erishishni nazorat qilish va monitoring qilish maqsadida faoliyat natijalarini yuritish uchun belgilangan shakldagi hujjatlar yoki amalga oshirilgan faoliyat to‘g‘risidagi yozma guvohnomani aks ettiradi.

54. Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorat bo‘limi KQKMTga oid Davlat ekologik ekspertizasi markazining ichki hujjatlarini saqlash uchun javobgardir.

55. Tashqi hujjatlar bilan tanishish O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

56. Rasmiy aloqa kanallari orqali kelgan tashqi hujjatlarning barcha idoraviy va qonunchilik talablari ijro uchun tegishli tarkibiy bo‘linmalarga ichki aloqa kanallari orqali yuboriladi va bajarilishini keyingi monitoringi amalga oshiriladi. Mazkur faoliyat Davlat ekologik ekspertizasi markazining Nazorat va ijro intizomi hamda murojaatlarni ko‘rib chiqish bo‘limi funksiyalari doirasida amalga oshiriladi.

VI. Ish faoliyati

§ 1. Faoliyatni rejalashtirish va boshqarish

57. Korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlarini rejalashtirish har yili amalga oshiriladi.

58. Rejalashtirishda joriy kontekst, manfaatdor tomonlar talablari, huquqiy va tartibga soluvchi talablar, KQKMT samaradorligining oldingi tahlillari natijalari kabi omillar hisobga olinadi.

§ 2. Kompleks tekshirish (dyu dilidjens)

59. Davlat ekologik ekspertizasi markazi xavf darajasi pastdan yuqori bo‘lgan xodimlar, biznes hamkorlar, kontagentlar, bitimlar, shartnomalar yuzasidan kompleks tekshiruv o‘tkazadi. Kompleks tekshiruvni amalga oshirishning asosiy maqsadi korrupsiya xavfining darajasini kamaytirish va boshqarish choralarini amalga oshirish. Biroq, Davlat ekologik ekspertizasi markazi ma’lum bir xodimlar yoki kontragentlarga nisbatan kompleks tekshiruv o‘tkazishni asossiz yoki nomutanosib deb hisoblashi mumkin.

60. Xodimlarni kompleks tekshirish o‘tkazishning batafsil tartibi “Davlat ekologik ekspertizasi markazi va hududiy filiallariga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo‘yicha Yo‘riqnoma”da keltirilgan.

61. Kelishuvlarni kompleks tekshirishni o‘tkazish, hamkorlar bilan ishlashning batafsil tartibi “Davlat ekologik ekspertizasi markazi va hududiy filiallarida kontragentlarni tekshirishga oid Yo‘riqnoma”da keltirilgan.

§ 3. Moliyaviy nazorat

62. Davlat ekologik ekspertizasi markazining KQKMT quyidagi moliyaviy nazorat choralarini o‘z ichiga oladi:

a) bir shaxs to‘lovni boshlashi va tasdiqlay olmasligi uchun majburiyatlarni ajratish;

b) to‘lovni tasdiqlash uchun kamida ikkita imzoni talab qilish;

c) tasdiqlangan to‘lovga ilova qilingan tegishli tasdiqlovchi hujjatlarning mavjudligi talabi;

d) xizmat safari yoki ishga oid xarajatlar ustidan nazoratni kamida ikkita xodimni tasdiqlashi orqali ta’minlash;

e) ichki moliyaviy auditorlar tomonidan davriy tahlillar o‘tkazish;

f) davriy va mustaqil moliyaviy auditlarni o‘tkazish va auditni amalga oshiruvchi shaxslar yoki tashkilotlarni muntazam ravishda o‘zgartirish.

§ 4. Nomoliyaviy bo‘lmagan nazorat

63. Davlat ekologik ekspertizasi markazining KQKMT tizimi quyidagi moliyaviy bo‘lmagan nazoratni o‘z ichiga oladi:

a) korrupsiya xavfi ehtimoli baholangan va nazorat choralari ko‘rilgan tasdiqlangan pudratchilar, subpudratchilar, ta’minotchilar va maslahatchilardan foydalanish;

b) kamida uchta ishtirokchi ishtirokida tender o‘tkazish;

c) tender savdolari natijalarini baholash va shartnomani tuzishni tasdiqlashda kamida ikki kishini jalb qilish talabi;

d) shartnoma to‘lovlarini tasdiqlash uchun mas’ul bo‘lgan xodimlar shartnoma bo‘yicha to‘lovni talab qiluvchilar bilan bir bo‘lmasligi uchun vazifalarni ajratishni amalga oshirish;

e) shartnoma bo‘yicha va shartnomalar shartlarini o‘zgartiruvchi hujjatlarda kamida ikki kishining imzosini talab qilish yoki shartnoma bo‘yicha ishlarni bajarish yoki yetkazib berishni tasdiqlash;

f) tender hujjatlari daxlsizligini va narxlarga oid maxfiy ma’lumotlarni himoya qilishni ta’minlash, faqat tegishli shaxslarga kirishni cheklash;

g) korrupsiyaviy xavf darajasi yuqoridan past bo‘lgan xodimlar va biznes-hamkorlarga nisbatan kompleks tekshiruvlarni amalga oishirish.

§ 5. Nazorat qilinadigan tashkilotlar va biznes hamkorlar uchun korrupsiyaga qarshi nazorat choralarini amalga oshirish

64. Davlat ekologik ekspertizasi markazi va hududiy filiallari nazorat qilinadigan tashkilotlardir. Davlat ekologik ekspertizasi markazi o‘zining tizim tashkilotlarini boshqarish uchun Davlat ekologik ekspertizasi markazining KQKMT kabi tizim joriy qilishi zarur. Agar tashkilot nazorat qilinmasa, u holda korrupsiyaga qarshi shartlarni imzolashi kerak.

65. Korrupsiyaga qarshi ekanligi to‘g‘risidagi shartlarni imzolashdan bosh tortgan taqdirda, Davlat ekologik ekspertizasi markazi har tomonlama tekshirishni amalga oshiradi va ushbu hamkor bilan munosabatlardagi mumkin bo‘lgan korrupsiya xavflarini baholaydi.

Shu bilan birga, qabul qilinishi mumkin bo‘lmagan korrupsiya xavflari yuzaga kelgan taqdirda, Davlat ekologik ekspertizasi markazi ushbu hamkor bilan munosabatlarni tugatishi mumkin.

66. Kontragentlar bilan munosabatlar tartibining batafsil tavsifi “Davlat ekologik ekspertizasi markazi va hududiy filiallari kontragentlarni tekshirishga oid Yo‘riqnoma”da keltirilgan.

§ 6. Korrupsiyaga qarshi kurashish majburiyati

67. Davlat ekologik ekspertizasi markazi uchun xavf darajasi pastdan yuqori bo‘lgan hamkorlar, yangi kontragentlari, xayriya qiluvchilari Korrupsiyaga qarshi kurashish majburiyatini imzolaydilar. Korrupsiyaga qarshi shartlar Davlat ekologik ekspertizasi markazining barcha shartnomalariga kiritiladi.

68. Mazkur majburiyat buzilgan taqdirda, Davlat ekologik ekspertizasi markazi hamkor bilan tuzilgan shartnomalarni bekor qilishga va hamkordan Davlat ekologik ekspertizasi markaziga yetkazilgan zararni qoplashni qonuniy ravishda talab qilishga haqli.

69. Agar korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha majburiyatlar biznes-hamkor tomonidan qabul qilinmasa, Davlat ekologik ekspertizasi markazi korrupsiyaviy xavf-hatarlarni aniqlash va baholash uchun kompleks tekshiruv o‘tkazadi.

§ 7. Sovg‘alar, minnatdorchilik belgilari, xayr-ehsonlar va shunga o‘xshash rag‘batlantirishlar

70. Mijozlar, hamkorlar yoki uchinchi shaxslardan har qanday sovg‘a yoki boshqa turdagi moddiy yoki nomoddiy aktivlarni qabul qilish yoki qabul qilishdan bosh tortish tartibi ushbu tartib talablari va Davlat ekologik ekspertizasi markazi tomonidan boshqarilib, O‘zbekiston Respublikasi Adliya Ekologiya qo‘mitasi raisiligi tomonidan 2023-yil 13-martda 3425 raqami bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan, “Davlat fuqarolik xizmatchisi tomonidan xizmat safarlari, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan olinishi mumkin bo‘lgan sovg‘a qiymati, shuningdek uni tasarruf etish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida” O‘zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktorining 54-sonli buyrug‘i asosida amalga oshiriladi hamda Markazning Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatida keltirilgan.

§ 8. Korrupsiyaga qarshi choralar yetarli darajada bo‘lmagan taqdirda boshqaruv tartibi

71. Ayrim bitimlar, loyihalar, faoliyatlar yoki hamkorga nisbatan korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi pastdan yuqori bo‘lsa va korrupsiyaga qarshi choralar ko‘rilmagan yoki yetarli bo‘lmagan taqdirda, Davlat ekologik ekspertizasi markazi:

a) mavjud bo‘lgan bitim, loyiha, faoliyat turi yoki korrupsiya xavfiga mos keladigan munosabatlar bo‘lsa, iloji boricha tezroq uzish, tugatish, to‘xtatib turish yoki rad etish choralarini ko‘radi;

б) rejadagi yangi bitim, loyiha, faoliyat yoki munosabatlar bo‘lsa, ularni davom ettirishni kechiktirish yoki rad etish choralarini ko‘radi.

72. Keyingi nazorat chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qaror bunday vaziyatni bartaraf etish uchun maxsus tuzilgan tegishli komissiya yoki ishchi guruh tomonidan qabul qilinadi va bayonnoma shaklida rasmiylashtiriladi. Korrupsiyaga qarshi choralar yetarli darajada o‘tkazilmagan taqdirda boshqaruv masalalari bo‘yicha qaror xavflarni keyingi yangilashda hisobga olinadi.

§ 9. Shubhalar haqida xabar berish

73. Davlat ekologik ekspertizasi markazi korrupsiyaga oid shubhalar yoki korrupsiya faktlari to‘g‘risida xabar berishning xavfsiz va maxfiy tartibini ta’minlaydi va gumon haqida xabar bergan shaxs ma’lumotlarining huquqiy himoyasi va maxfiyligini ta’minlaydi.

74. Davlat ekologik ekspertizasi markazi shubhali holatlar haqida xabar berganda ushbu shaxsni har qanday ta’qibdan himoya qilishni kafolatlaydi.

75. “Davlat ekologik ekspertizasi markazi va hududiy filiallarining hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarilariga aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish Reglamenti”da tartibga solingan.

§ 10. Korrupsiyaga qarshi tergov va choralar qo‘llash

76. Korrupsiya yoki korrupsiyaga qarshi siyosatga zid bo‘lgan xatti-harakatlar to‘g‘risida ma’lumot olgandan so‘ng, Davlat ekologik ekspertizasi markazi ushbu hodisalar yuzasidan ichki xizmat tekshiruv o‘tkazadi.

77. Ushbu tartibni amalga oshirish tartibi “Davlat ekologik ekspertizasi markazi va hududiy filiallari xodimlarining korrupsiyaviy xatti-xarakatlari va odob-ahloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o‘tkazish bo‘yicha Reglament”da keltirilgan.

VII. Ish faoliyatini baholash

§ 1. Monitoring, o‘lchash, tahlil qilish va baholash

78. KQKMT samarali faoliyati ko‘rsatkichlarini monitoring qilish, o‘lchash, tahlil qilish va baholash kalendar yilida kamida bir marta Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazorat bo‘limi tomonidan amalga oshiriladi.

79. Korrupsiyaga qarshi kurash menejment tizimining monitoringi quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

a) kuzatish va o‘lchash kerak bo‘lgan masalalar:

b) monitoring uchun kim javobgar;

c) qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan natijalarni ta’minlash uchun monitoring, o‘lchash, tahlil va baholash usullari;

d) monitoring va o‘lchovlar amalga oshirilishi kerak bo‘lgan davriylik;

e) monitoring va o‘lchash natijalari tahlil qilinishi va baholanishi kerak bo‘lgan davriylik;

f) bunday ma’lumotlar taqdim etilishi kerak bo‘lgan shaxs.

80. “Davlat ekologik ekspertizasi markazi va hududiy filiallarida korrupsiyaga qarshi tartib-taomillaming samaradorligini monitoring va nazorat qilish uslubiyoti”da keltirilgan.

81. Davlat ekologik ekspertizasi markazi KQKMT boshqa sohalari bo‘yicha qo‘shimcha monitoring o‘tkazishi mumkin.

82. Yakuniy natijalar keyingi tahlil qilish uchun rahbariyatga taqdim etiladi.

§ 2. Ichki audit

83. KQKMT faoliyatini baholash uchun Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazorat bo‘limi va boshqa yetarli malakaga ega mutaxassislardan auditorlar guruhi tuziladi, ular kalendar yilida kamida bir marta butun KQKMTning ichki auditini rejalashtiradi va o‘tkazadi.

84. “Davlat ekologik ekspertizasi markazi va hududiy filiallarining KQKMT ichki auditlarini o‘tkazish Tartibi” talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

§ 3. Boshqaruv tomondan tahlil

85. Davlat ekologik ekspertizasi markazida KQKMTning samarali ishlashini tahlil qilish uning doimiy yaroqliligi, muvofiqligi va samaradorligini ta’minlash maqsadida kalendar yili davomida kamida bir marta Davlat ekologik ekspertizasi markazi bosh direktor birinchi o‘rinbosari tomonidan amalga oshiriladi.

86. Bosh direktor birinchi o‘rinbosarining tahlili quyidagilarni o‘z ichiga olishi kerak:

a) rahbariyat tomonidan avvalgi yechimlarning holati;

b) korrupsiyaga qarshi kurash menejment tizimi bilan bog‘liq tashqi va ichki omillarni o‘zgarishi;

c) korrupsiyaga qarshi kurash menejment tizimining ishlashi, shu jumladan quyidagi tendensiyalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar:

d) nomuvofiqliklar va tuzatuvchi harakatlar;

e) monitoring va o‘lchov natijalari;

f) audit natijalari;

g) korrupsiya holatlari to‘g‘risida ma’lumot berish;

h) xizmat tekshiruvlari;

i) Davlat ekologik ekspertizasi markazi duch keladigan korrupsiya xavfining tabiati va darajalari;

j) korrupsiya xatarlariga nisbatan ko‘rilayotgan chora-tadbirlar samaradorligi;

k) korrupsiyaga qarshi kurashish talablariga muvofiq boshqaruv tizimini doimiy ravishda takomillashtirish imkoniyatlari.

87. Tahlili natijalari qisqacha hisobot shaklida Davlat ekologik ekspertizasi markazi bosh direktoriga (Boshqaruv organiga) taqdim etilishi kerak.

88. Bosh direktor tomonidan KQKMT samarali ishlashini tahlil qilish kalendar yili davomida kamida bir marotaba Davlat ekologik ekspertizasi markazi bosh direktorining birinchi o‘rinbosari va Korrupsiyaga qarshi kurashi va komplaens nazorat bo‘limi tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlarga asoslanib amalga oshiriladi.

89. Axborotni tahlil qilish yig‘ilish shaklida amalga oshiriladi va qaror yig‘ilish bayonnomasi sifatida rasmiylashtiriladi.

90. Davlat ekologik ekspertizasi markazida korrupsiya xavf-xatarlarini samarali boshqarish maqsadida Korrupsiyaga qarshi kurashi va komplaens nazorat bo‘limi korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini kalendar yili davomida kamida bir marta muntazam baholashni amalga oshiradi hamda bunday baholash va tahlil natijalarini Davlat ekologik ekspertizasi markazi bosh direktori va bosh direktorning birinchi o‘rinbosariga taqdim etadi.

VIII. Takomillashtirish

§ 1. Nomuvofiqlik va tuzatish harakatlari

91. Nomuvofiqlikni boshqarish, tuzatish ishlari va ularning samaradorligini baholash "Davlat ekologik ekspertizasi markazi va hududiy filiallarining korrupsiyaga qarshi menejment tizimining nomuvofiqliklar va tuzatuvchi choralarini boshqarish Tartibi" talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

§ 2. Doimiy takomillashtirish

92. Davlat ekologik ekspertizasi markazining Korrupsiyaga qarshi kurash siyosatiga muvofiq Davlat ekologik ekspertizasi markazi rahbariyati KQKMTning yaroqliligi, yetarliligi va samaradorligini doimiy ravishda oshirish majburiyatini oladi.

93. Davlat ekologik ekspertizasi markazining KQKMTni doimiy takomillashtirish quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

a) rejalashtirilgan korrupsiyaga qarshi tadbirlarni resurslar bilan ta’minlash;

b) Davlat ekologik ekspertizasi markazi menejment tizimining biznes jarayonlarini o‘zgartirish;

c) Davlat ekologik ekspertizasi markazi KQKMTning boshqa manfaatdor tomonlari faoliyati bilan bog‘liq korrupsiya xavflarini nazorat qilish choralarini o‘zgartirish;

d) Davlat ekologik ekspertizasi markazining KQKMT jarayonlari samaradorligi mezonlarini o‘zgartirish.

Davlat ekologik ekspertizasi markazi va hududiy filiallarida korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi bo‘yicha QO‘LLANMAga **1-ilova**

Davlat ekologik ekspertizasi markazining Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi jarayonlari rahbarlari, maqsadi va ishtirokchilari

T.r.	Jarayon nomi	Jarayon maqsadi	Jarayon ishtirokchilari
1.	**KQKMTni rejalashtirish** **Jarayon rahbari:** Davlat ekologik ekspertizasi markazi bosh direktori	–Kontekst, siyosat va maqsadlarni aniqlash; Maqsadlarga erishish uchun chora-tadbirlar ishlab chiqish; –KQKMT samaradorligiga va maqsadlariga erishishga ta’sir qiluvchi xavf va imkoniyatlarni aniqlash; –Xavflarni kamaytirish va imkoniyatlardan foydalanish bo‘yicha chora-tadbirlarni rejalashtirish, korrupsiya risklarini baholash va ularni kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlarni rejalashtirish	–Bosh direktor; –Bosh direktorning o‘rinbosarlari; –Rahbariyat; –Korrupsiyaga qarshi kurash va komplaens-nazorat bo‘limi; –KQKMT jarayonlari rahbarlari; –Tarkibiy tuzilma rahbarlari;
2.	**KQKMT talablarini tatbiq qilish va ishchi holatda saqlash** **Jarayon rahbari:** – Korrupsiyaga qarshi kurash va komplaens-nazorat bo‘limi rahbari	–Har tomonlama tekshirish; –Moliyaviy nazorat; –Moliyaviy bo‘lmagan nazorat choralari; –Poraxo‘rlikni oldini olish mexanizmlarini joriy etish; –Poraxo‘rlikka qarshi majburiyatlar; –Sovg‘alar, minnatdorchilik belgilari, xayriyalar va shunga o‘xshash rag‘batlantirishlar	–Korrupsiyaga qarshi kurash va komplaens-nazorat bo‘limi; –Buxgalteriya hisobi va moliyaviy nazorat boshqarmasi; –Xaridlar bo‘limi;
1.	**KQKMT monitoringi va baholash** **Jarayon rahbari:** – Korrupsiyaga qarshi kurash va komplaens-nazorat bo‘limi rahbari	–KQKMT auditini o‘tkazish; –KQKMT jarayonlari bo‘yicha ma’lumotlarni to‘plash; –Poraxo‘rlik faktlarini xabardor qilish va ichki tergov ishlari bo‘yicha ma’lumotlarni to‘plash; –Poraxo‘rlik xavfi bo‘yicha ko‘rilgan choralar samaradorligi to‘g‘risida ma’lumotlar to‘plash; –Doimiy takomillashtirish imkoniyatlari bo‘yicha ma’lumotlarni yig‘ish.	–Raisning birinchi o‘rinbosari; –Korrupsiyaga qarshi kurash va komplaens-nazorat bo‘limi; –Nazorat va ijro intizomi hamda murojaatlarni ko‘rib chiqish bo‘limi; –KQKMT jarayonlari rahbarlari
2.	**KQKMTning amal qilishi**	–Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati tomonidan	–Bosh direktor;

T.r.	Jarayon nomi	Jarayon maqsadi	Jarayon ishtirokchilari
	va takomillashtirishning tahlili **Jarayon rahbari:** Davlat ekologik ekspertizasi markazi bosh direktorining birinchi o‘rinbosari	KQKMT samaradorligini baholash va tahlil qilish; –Yuqori rahbariyat tomonidan KQKMT samaradorligini baholash va tahlil qilish; –	–Bosh direktorning o‘rinbosarlari; –Korrupsiyaga qarshi kurash va komplaens-nazorat bo‘limi; –Nazorat va ijro intizomi hamda murojaatlarni ko‘rib chiqish bo‘limi;

Davlat ekologik ekspertizasi markazi va hududiy filiallarida korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi bo‘yicha QO‘LLANMAga **2-ilova**

Davlat ekologik ekspertizasi markazi KQKMT faoliyati ko‘rsatkichlari va samaradorligini baholash mezonlari

T.r.	Ishlash ko‘rsatkichi	Ishlash diapazoni		Yig‘ish chastotasi	Ko‘rsatkichni yig‘ish uchun javobgar
		Maqsad	Chegara		
1. KQKMTni REJALASHTIRISH					
1.	Korrupsiyaga qarshi kurash maqsadlariga erishish (Erishilgan maqsadlar soni / Davr uchun maqsadlar soni) * 100%	100%	90%	1 yilda 1 marotaba	
2.	Korrupsiyaga qarshi kurashish dasturini qayta ko‘rib chiqish / Har bir yil uchun dasturni qayta ko‘rib chiqish soni	Bir yilda kamida bir marta	Ko‘rib chiqmaslik	1 yilda 1 marotaba	
2. KQKMT TALABLARINI TADBIQ QILISH VA ISHCHI HOLATDA SAQLASH					
1.	Korrupsiyaviy holatlar yuzasidan tasdiqlangan qoidabuzarliklar (Tasdiqlangan qoidabuzarliklar soni / Jami holatlar soni) *100%	0%	10%	1 yilda 1 marotaba	
2.	Kompleks tekshiruvdan o‘tgan kontragentlar (Kompleks tekshiruvdan o‘tkazilgan kontragentlar soni / Jami kontragentlar soni) *100%	100%	90%	1 yilda 1 marotaba	
3.	Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha rejalashtirilgan o‘quv seminarlari o‘tkazish (O‘tkazilgan o‘quv seminarlar umumiy soni / Jami rejalashtirilgan o‘quv seminarlari soni)*100%	100%	90%	1 yilda 1 marotaba	
4.	O‘z vaqtida o‘tkazilgan xizmat tekshiruvlari (O‘z vaqtida o‘tkazilgan xizmat tekshiruvlari soni / Jami o‘tkazilgan xizmat tekshiruvlari soni)*100%	100%	90%	1 yilda 1 marotaba	

3. KQKMT NI MONITORING QILISH VA BAHOLASH					
1.	O‘tkazilgan KQKMT ichki auditlar soni / (Ichki audit o‘tkazilgan bo‘limlarning haqiqiy soni / ichki audit rejasiga muvofiq bo‘limlarning umumiy soni) *100%	100%	100%		
2.	Tarkibiy tuzilmalardan KQKMT bo‘yicha o‘z vaqtida taqdim etilgan ma’lumotlar foizi / (O‘z vaqtida topshirilgan jami ma’lumotlar / Barcha ma’lumotlar miqdori) *100%	100%	90%		
4. KQKMTning AMAL QILISHI VA TAKOMILLASHTIRISHNING TAHLILI					
1.	KQKMT faoliyatini tahlil qilish bo‘yicha Davlat ekologik ekspertizasi markazi bosh direktori va o‘rinbosarlari qarorlarni o‘z vaqtida bajarish / O‘z vaqtida bajarilmagan tadbirlar soni	KQKMT faoliyatini tahlil qilish bo‘yicha barcha qarorlarni o‘z vaqtida bajarish	Rejalashtirilgan bajarish sanasidan boshlab 1 oydan ortiq muddatga ega bo‘lgan 1 tadbirdan ortiq emas		
2.	KQKMT faoliyatini tahlil qilish amalga oshirilishi / O‘z vaqtida kiritilmagan hisobot sababli tahlil kechiktirilishi	10 kalendar kun	30 kalendar kun		

Davlat ekologik ekspertizasi markazi va hududiy filiallarida korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi bo‘yicha QO‘LLANMAga **3-ilova**

Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatiga muvofiqlik deklaratsiyasi

Ushbu orqali, men Davlat ekologik ekspertizasi markazining korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati talablaridan xabardor ekanligimni tasdiqlayman.

Davlat ekologik ekspertizasi markazining korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosatidagi belgilangan talablariga muvofiqligimni e’lon qilaman va tasdiqlayman hamda Davlat ekologik ekspertizasi markazining korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosati va korrupsiyaga qarshi menejment tizimining belgilangan talablarini buzmaganligimni **e’lon qilaman.**

Quyida keltirilgan kabi korrupsiyaviy faoliyatda ishtirok etmaganman va amalga oshirmaganman:

a) Davlat ekologik ekspertizasi markazi hamkorlari yoki uchinchi shaxslardan shaxsiy manfaatga erishish maqsadida, Davlat ekologik ekspertizasi markazi xodimlarining harakatlari, harakatsizligi yoki qarorlariga ta’sir ko‘rsatish uchun pul yoki boshqa turdagi moddiy boyliklarni taklif qilish yoki berish;

b) Davlat ekologik ekspertizasi markazi mijozlari yoki uchinchi shaxslaridan, ularga ortiqcha imtiyozlar berish evaziga shaxsiy manfaatga ega bo‘lish;

c) pora olish yoki tovlamachilikda vositachilik qilish;

d) mansab yoki vakolatni suiste’mol qilish;

e) tijoriy poraxo‘rlik;

f) manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni, shuningdek, korrupsiya yoki ularga shubhalarni o‘z ichiga olgan holatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yashirish;

g) korrupsiyaga aloqador xabar bergan shaxsga oid ma’lumotlar maxfiyligini ta’minlamaslik, unga nisbatan turli tazyiqlar o‘tkazish.

Deklaratsiya belgilangan davrni o‘z ichiga oladi 20__ -yil “___”_____dan 20__ -yil “___”_____gacha

Deklaratsiyani to‘ldirgan shaxsning to‘liq F.I.Sh. _____

Lavozim: _____

To‘ldirish sanasi: _____

Imzo: _____